**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTISIYALAR, SANOAT VA SAVDO VAZIRLIGI HUZURIDAGI O‘ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI**

# QARORI

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 iyundagi 345-sonli qarori bilan tasdiqlangan, “O‘quv asbob-uskunalari va anjomlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglamenti, Agentligining 2017 yil 4 dekabrdagi “Majburiylik xususiyatini yo’qotgan ayrim standartlashtirishga doir normativ hujjatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi DS-122-son qarorini bekor qilish va mazkur umumiy texnik reglamenti kuchga kirishi bilan ushbu texnik reglament talablariga rioya etilishi ta’minlanadigan standartlashtirishga doir hamda mahsulotlarning namunalarini olish, sinov va o‘lchov usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida**

“O‘quv asbob-uskunalari va anjomlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglament (keyingi o‘rinlarda – texnik reglament) kuchga kiritilishi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jixatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunining 8 va 22-moddalariga muvofiq hamda standartlashtirishga doir normativ hujjatlar ro‘yxatini yangilash maqsadida, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, **qaror qiladi:**

“O‘quv asbob-uskunalari va anjomlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglamenti qabul qilinishi bilan Agentligining 2017 yil 4 dekabrdagi “Majburiylik xususiyatini yo‘qotgan ayrim standartlashtirishga doir normativ hujjatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi DS-122-son qarori bekor qilinsin.

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi hududida:

2023 yilning 7 martidan mazkur texnik reglament talablariga rioya etilishi ta’minlanadigan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

mazkur texnik reglament bilan tartibga solinuvchi mahsulotlarning namunalarini olish, sinov va o‘lchov usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

mazkur ro‘yxatga kiritilmagan mahsulotlarning namunalarini olish, sinov va o‘lchov usullarini, laboratoriyalar mustaqil ravishda validatsiyadan (attestatsiyadan) o‘tkazgan holda foydalanishlariga ruxsat etiladi.

2. Standartlar instituti (A.Xamdamov) mazkur texnik reglament bilan tartibga solinadigan mahsulotlarga yangi standartlar (barcha toifadagi) qabul qilinishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har chorak yakuni bilan Texnik reglamentlar va standartlar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasiga kiritib borsin.

3. TR va SBDAO boshqarmasi (D.Xodjikariyev) taqdim etilgan yangi standartlarni belgilangan tartibda ushbu qarorning 1- va 2-ilovasi bilan tasdiqlangan, umumiy texnik reglament talablariga rioya etilishi ta’minlanadigan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar ro‘yxati hamda texnik reglament bilan

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: GJ45342422

tartibga solinuvchi mahsulotlarning namunalarini olish, sinov va oʻlchov usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar roʻyxatiga kiritib borsin.

4. AKTJQ va RB (F.Usmanov) va TR va SBDAO (D.Xodjikariyev) mazkur qaror bilan tasdiqlangan meʼyoriy hujjatlar roʻyxatlari Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini taʼminlasin.

5. MROʻBYaTB (A.Dodoyev) va “UzTest” DM (J.Gʻaniyev) mazkur qaror bilan tasdiqlangan meʼyoriy hujjatlar boʻyicha sertifikatlashtirish idoralarini va sinov laboratoriyalari akkreditatsiya doirasini kengaytirish choralarini koʻrsin.

6. Xoʻjalik va devonxona shoʻʼbasi (Sh.Xudayberganov) **ikki kun muddatda** mazkur qaror bilan Agentlikning markaziy apparati va tizim tashkilotlari rahbar xodimlariga yetkazilishini taʼminlansin.

7. Ushbu qaror ijrosi ustidan nazorat Bosh direktorning oʻrinbosari A.Abdukayumov zimmasiga yuklatilsin.

**Bosh direktor** **D. Sattarov**

Toshkent sh.
“ 7 ” mart 2023 yil
TR-27 - son

O‘zbekiston texnik jihatdan
tartibga solish agentligi 2023 yil
7 martdagi TR-27-son qaroriga
1-ilova

**“O‘quv asbob-uskunalari va anjomlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglamenti kuchga kirishi bilan ushbu texnik reglament talablariga rioya etilishi ta’minlanadigan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar ro‘yxati**

| T/R | **Standartni belgilanishi** | **Standartni nomi** |
|---|---|---|
| 1. | ГОСТ 12.2.009-99 | Станки металлообрабатывающие. Общие требования безопасности |
| 2. | ГОСТ 12.2.026.0-2015 | Оборудование деревообрабатывающее. Требования безопасности к конструкции |
| 3. | ГОСТ 5994-93 (ИСО 5970-79) | Парты. Типы и функциональные размеры |
| 4. | ГОСТ 11016-93 (ИСО 5970-79) | Стулья ученические. Типы и функциональные размеры |
| 5. | ГОСТ 11015-93 (ИСО 5970-79) | Столы ученические. Типы и функциональные размеры |
| 6. | ГОСТ 16371-93 | Мебель. Общие технические условия |
| 7. | ГОСТ 18314-93 (ИСО 5970-79) | Столы ученические лабораторные. Функциональные размеры |
| 8. | ГОСТ 18607-93 | Столы демонстрационные. Функциональные размеры |
| 9. | ГОСТ 22046-2016 | Мебель для учебных заведений. Общие технические условия |
| 10. | ГОСТ IEC 60065- 2013 | Аудио-, видео- и аналогичная электронная аппаратура. Требования безопасности |
| 11. | ГОСТ 12.1.004-91 | Система стандартов безопасности труда (ССБТ). Пожарная безопасность. Общие требования |
| 12. | ГОСТ 12.2.007.0-75 | Система стандартов безопасности труда (ССБТ). Изделия электротехнические. Общие требования безопасности |
| 13. | ГОСТ 20064-86 (СТ СЭВ 5426-85, СТ СЭВ 6475-88) | Доски классные. Общие технические требования |
| 14. | ГОСТ 12.2.026.0-2015 | Оборудование деревообрабатывающее. Требования безопасности к конструкции |